



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Ibragimov Shahzod Umirzoq o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Asatullayev Fatxulla Ozod-Qamar o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishning geografik asoslari yoritilgan. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan o‘zlashtirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, geotizimlarni saqlash, samarali boshqarish hamda ekoturizmni rivojlantirish geografiya bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan, ushbu yo‘nalishlarni “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishning geografik asoslari sifatida o‘rganishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv resurslari, tabiiy resurslari, geotizimlar, ekoturizm.

GEOGRAPHICAL BASICS OF FORMATION GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN

Ibragimov Shakhzod

Asatullaev Fatkhulla

Annotation: This article covers the geographical basis of the formation of the green economy. The development of green economy, which is one of the main directions of development, is directly related to geography: the acquisition of renewable energy sources, the rational use of water resources, the storage of geosystems, effective management and the development of ecotourism. In this regard, we can study these trends as the geographical basis for the formation of the green economy.

Keywords: green economy, green growth, renewable energy sources, water resources, natural resources, geosystems, ecotourism.

Hozirgi kunda iqlim o‘zgarishi va u bilan bog‘liq ekologik muammolar mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda namoyon bo‘lib, insoniyat oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni qo‘ymoqda. Shulardan eng muhimi iqtisodiyotda ekologik talablarni joriy etish, ya’ni “yashil” iqtisodiyotga o‘tish hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot – bu ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Bir so‘z bilan “yashil” iqtisodiyotni kelajak iqtisodiyoti deb ham atash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining rasmiy veb-sayti (www.mineconomy.uz)da “Yashil” iqtisodiyot – atrof-muhitni muhofaza qilish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladigan iqtisodiy model³²” ekanligi ta’kidlangan.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari mavjud:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish;
2. Chiqindilarni qayta ishlash tizimi takomillashtirish;
3. Suv resurslarini boshqarish;
4. “Yashil” transportni shakllantirish;
5. Qishloq xo‘jaligida organik mahsulot yetishtirishni rivojlantirish;
6. Uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish;
7. Ekotizimlarni saqlash, boshqaruv samaradorligini oshirish va ekoturizmni rivojlantirish;
8. “Yashil” texnologiyalarni yaratish va sotish.

Iqtisodiy adabiyotlarda 2012-yilda YUNEP Boshqaruv kengashi “Yashil” iqtisodiyot kaolitsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan³³:

1) barqarorlik – “yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi;

2) adolatlilik – “yashil” iqtisodiyot mamlakatlar va avlodlar o‘rtasidagi tenglik va adolatni qo‘llab-quvvatlaydi, inson huquq va erkinliklar hamda manfaatlarini ifoda etadi;

3) barcha uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi – “yashil” iqtisodiyot barcha uchun sog‘lom hayot kechirish imkoniyatini yaratadi;

4) sog‘lom sayyora – “yashil” iqtisodiyot Yer sayyorasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi;

5) ishtirok etish – “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda barcha fuqarolar ishtirok etishlari mumkin;

6) oqilona boshqaruv va shaffoflikni ta’minlash – “yashil” iqtisodiyot oqilona boshqaruvni taqozo etadi va ma’lumotlar shaffofligi ta’minlanadi;

7) moslashuvchanlik – “yashil” iqtisodiyot iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarga moslashgan holda barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi;

³² <https://mineconomy.uz/uz/info/4305>

³³ <https://www.unece.org/sustainable-development/green-economy-what-are-the-main-purpose-and-the-related-objectives-of-green-economy.html>

8) samaradorlik va yetarlilik – “yashil” iqtisodiyot resurslar samaradorligi asosida faoliyat yuritadi, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik innovatsiyalarning rivojlanishiga ko‘maklashadi;

9) avlodlar birdamligi – “yashil” iqtisodiyot amalda va istiqbolda investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi, tabiiy ekotizimlar va tabiiy resurslarni kelgusi avlodlarga ham yetkazib berishga harakat qiladi.

Yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasi “yashil” iqtisodiy tizimni tashkil etadi va ularning shakllanishi “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishlarning har biriga alohida to‘xtalib o‘tsak.

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish. Hozirgi kunda an’anaviy energiya manbalari bo‘lgan neft, tabiiy gaz va ko‘mir zaxirasi tobora tugab borayotgan bir davrda insoniyat oldida energoresurslarni tejash va muqobil energiyaga bosqichma-bosqich o‘tish vazifasi turibdi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari deganda amalda tugamaydigan tabiiy resurslar tushuniladi. Ularga atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yerning ichki energiyasi (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati (qalqish), biomassa energiyasi kiradi.

Jahonda qayta tiklanuvchi energiyaning jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasidagi ulushi 26,5% ni (2020-y.) tashkil etmoqda. Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Ispaniya va AQSH noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Dunyoning 37 ta mamlakatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid qonun qabul qilingan, 70 ga yaqin mamlakat qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ishlash hajmini ko‘paytirishga harakat qilmoqda.

Germaniya atom elektr stansiyalaridan foydalanishdan voz kechmoqda, 2020-yilgacha elektr energiyaning 20 foizini qayta tiklanuvchi energiyadan olishni rejalashtirgan, har yili esa 100 ming uyning tomini quyosh panellari bilan qoplamoqda. Bunday usuldan foydalanish har tomonlama qulaylik tug‘diradi, hech qanday ortiqcha joy talab qilmaydi, aksincha tom bekiladi va uyni xohlagan vaqtda isitish, xonadon ehtiyojini to‘laligicha elektr energiya bilan ta‘minlash mumkin. Ko‘pgina davlatlarda shamol energetikasi qurilmalari dengiz bo‘ylariga o‘rnatilmoqda. Shveysariyada yo‘lovchilarni tashish avtobuslari bioyonilg‘ida ishlaydi. Yaponiya hukumati quyosh energetikasi texnologiyasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi. Bugungi kunga kelib, jahonda quyosh energiyasi ishlab chiqaruvchi quvvatlarni o‘rnatish 50 foizga oshdi.

Biogaz kislorodsiz bakteriyalar yordamida turli chiqindilarni qayta ishlash natijasida olinadi. So‘nggi yillarda iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan Xitoy, Vetnam, Hindiston, Markaziy va Janubiy Amerika davlatlarida biogazdan foydalanish texnologiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Chorvachilik, parrandachilik, o‘simlik chiqitlarini qayta ishlash natijasida olinadigan biogaz qishloq xo‘jaligini

rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Qayta ishlash natijasida hosil qilingan tabiiy mineral o‘g‘itlar yer unumdorligini oshirishda keng qo‘llaniladi. Oxirgi yillarda biogaz energiyasi bo‘yicha ko‘pgina tajribalar qilindi va kerakli natijalarga erishildi. Bir tonna hajmdagi chiqindi saqlaydigan biogaz qurilmasi bir oilani 6 oy mobaynida gaz bilan ta‘minlashi mumkin.

2. Chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish. So‘nggi yillarda jahon miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko‘payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o‘sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi.

Ma'lumotlarga ko‘ra, dunyoning deyarli barcha mamlakatida qattiq maishiy chiqindilar salmog‘i aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortib bormoqda. Jahonda yiliga faqat maishiy chiqindilarning o‘zigina qariyb 6 mlrd. tonnagacha hosil bo‘lmoqda. Chiqindilarning turi nihoyatda ko‘p, va ular orasidan hozirda metall, plastmassa, qog‘oz, shisha, yog‘ochlardangina ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanilmoqda, xolos.

Albatta, chiqindi paydo bo‘lishini butunlay to‘xtatib bo‘lmaydi. Ammo hosil bo‘layotgan chiqindi ko‘rsatkichini kamaytirish, ularni qayta ishlash, tabiiy resurslar sarfini kamaytirish, chiqindilarni to‘g‘ri yo‘qotishning muqobil yo‘llarini ishlab chiqish imkoni har doim mavjud.

Aholisi salomatligi, tabiat muhofazasi haqida qayg‘uradigan har bir mamlakat chiqindini qayta ishlash bo‘yicha strategik davlat siyosatini ishlab chiqqan. Chiqindini utilitatsiya (qayta ishlash) qilish uchun, avvalambor, uni saralash (plastik alohida, karton va qog‘oz alohida, organik moddalar alohida) kerak. Bu tizimning qanday ishlashini dunyoning eng ekologik toza davlati Shveysariya va eng rivojlangan mamlakat hisoblangan Singapur misolida ko‘rib chiqamiz.

Shveysariyada yangi uy-joyga ko‘chib o‘tgan xonadon egasiga chiqindi bilan qanday munosabatda bo‘lish, nimani qachon va qayoqqa tashlash kerakligi batafsil bayon etilgan qo‘llanma pochta orqali jo‘natiladi. Har bir xonadonda chiqindi turiga qarab, uni saralash uchun maxsus konteyner mavjud. Bunday konteynerlar rangiga qarab tasniflanadi. Qayta ishlanadigan chiqindi alohida ajratiladi, qayta ishlanmaydiganini esa donasi 2 frank (16 400 so‘m) turadigan xaltalarga solib, maxsus belgilangan joyga olib borib tashlash talab etiladi. Chiqindi tashlash punktiga borish uchun ham alohida ruxsatnoma olish kerak (bunday ruxsatnomani esa mahalliy ma'muriyat chiqindi uchun soliqni to‘lagan fuqarolargagina beradi). Jamoat chiqindixonalarida hamma narsa batartib joylashtirilgan. Eski kiyim va poyabzallarni qo‘yish uchun ustiga «katta rahmat» yozuvi tushirilgan idish ajratilgan (ular uysizlar va muhtojlarga tarqatiladi). Shveysariyada chiqindining 80 foizi to‘la qayta ishlanadi. Ruxsat etilmagan hududga chiqindi uloqtirgan shaxs katta miqdordagi jarimaga tortiladi.

Singapurda ham chiqindilarni ajratish tizimi 2014-yilda to'la yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, barcha ko'p qavatli uylarda ikkita chiqindi quvuri mavjud. Har bir xonadonning oshxonasida bu quvurga darcha ochiladi. Quvurning bittasiga qayta ishlanadigan mahsulotlar (shisha, plastik, qog'oz va karton), ikkinchisiga qayta ishlashga yaroqsizlari tashlanadi. Mustahkam himoyalangan quvurlar ortiqcha noxush hidlarning paydo bo'lishiga va hasharotlar to'planishiga yo'l qo'ymaydi.

Quvurlar yerosti yo'li orqali markaziy va yagona chiqindixonaga boradi. Bu usulning amaliyotga tatbiq etilishi chiqindini tashish uchun sarflanadigan yo'l xarajatlarining sezilarli qisqarishiga sabab bo'lgan. Utilizatsiyaga yaroqli chiqindilar qayta ishlanadi, yaroqsizlari esa yoqiladi, undan qolgan kuyindi Singapurdan 8 km uzoqlikdagi Semakau sun'iy oroliga olib borib tashlanadi. Bu orol bir qarashda hecham chiqindi poligoniga o'xshamaydi. Suvni ifloslantirmaslik uchun orol maxsus to'rdevor bilan o'ralganiga qaramay, bu yerdagi suv va havoning tozaligi muntazam ravishda monitoring qilinadi. Orolning atrofida mahalliy aholi bemalol cho'milishi va baliq ovlashi mumkin.

Ma'lumot uchun: shisha mahsulotlari – 1 mln yil; rezina – 80 yil; konserva – 100 yil; charm – 50 yil; neylon – 40 yil; polietilen – 20 yilda chiriydi.

3. Suv resurslarini boshqarish. Suv – bu aholi, iqtisodiyot va ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari hayoti va faoliyati, shuningdek ekologik muvozanatni saqlash uchun zarur tabiiy resurs hisoblanadi.

O'zbekiston suv resurslarining kelgusi balansiga mintaqaning asosiy daryolari shakllanadigan muzliklarning jadal erishi, iqlim o'zgarishining boshqa jihatlari, shuningdek aholining suvga ortib borayotgan ehtiyojlari va sanoatning rivojlanishi ta'sir ko'rsatadi.

Butun Markaziy Osiyodagidek, O'zbekistonga ham iqlim o'zgarishi avvalo, hududning asosiy daryolarini shakllantiradigan tog' muzliklarining erishi bilan tahdid soladi. So'nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko'ra, harorat 2 darajaga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4 darajaga isiganda – 78 foizga kamayadi.

Suv taqchilligi bilan bog'liq vaziyat qo'shni mamlakatlardan suv yetkazib berilishiga nihoyatda bog'liq ekanligi bilan yanada murakkablashadi (iste'mol qilinadigan suvning 80 foizi mamlakatga tashqaridan keladi).

So'nggi yillarda O'zbekiston tomonidan foydalaniladigan suv resurslarining yillik hajmi o'rta hisobda 51-53 km³.ni tashkil etadi va bu umumiy olingan suv hajmining o'tgan asr 80-yillariga nisbatan jiddiy tarzda (20 foiz) qisqarganini ko'rsatadi (shu bilan birga, mamlakat aholisi bir yarim - ikki baravarga ko'paygan). Kelgusida vaziyat faqat yomonlashadi.

Mavjud suv resurslaridan foydalanishning asosiy muammosi – qishloq xo‘jaligida suv resurslarini yetkazib berish va iste‘mol qilishda ulardan samarasiz foydalanish. Ko‘rsatib o‘tilgan muammo institutsional, texnologik va kadrlarga oid sabablarga ega.

4. “Yashil” transportni shakllantirish. Transport tizimi ham atrof-muhitni eng ko‘p ifloslaydigan sohalardan biri. Shuning uchun ham hozirgi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlari “sof”, “barqaror” va “toza” transport tizimiga o‘tmoqda. “Yashil” transport deganda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytiruvchi transport vositalarida harakatlanishni tashkil etish shakli tushuniladi. “Yashil” transport tizimiga piyoda yurish, velosipedda harakatlanish, elektromobillar, elektrobuslardan foydalanishni kiritishimiz mumkin.

5. Qishloq xo‘jaligida organik mahsulot yetishtirishni rivojlantirish.

Organik qishloq xo‘jaligi – bu agroekotizim, shu jumladan, biologik xilma-xillik, biologik sikllar va tuproqning biologik faolligini rivojlantirishga yordam beradigan ishlab chiqarishni boshqarish tizimidir. Bu tabiiy resurslardan foydalanish hamda sintetik o‘g‘itlar va pestitsidlardan foydalanishni rad qilishdir.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qishloq xo‘jaligida gerbitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar hamda sun‘iy o‘g‘itlardan foydalanishdan voz kechish taklif etilmoqda. Organik qishloq xo‘jaligi jahon “yashil” iqtisodiyotining muhim yo‘nalishi sifatida 178 ta mamlakatda rivojlantirilmoqda. Qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilikni yuritish uchun ajratilayotgan yer maydonlari yildan yilga kengayib bormoqda. 2019-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, jahon miqyosida 70 mln gektardan ortiq yer maydoni organik qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich jami qishloq xo‘jaligi yerlarining 1,4%ini tashkil etadi.

Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1) tabiatning tizimi va aylanmasi bilan hisoblashgan holda tuproq, suv, o‘simliklar va hayvonlarning sog‘lig‘ini, shuningdek, ularning orasidagi muvozanatni saqlash;

2) biologik xilma-xillikni saqlashga hissa qo‘shish;

3) energiya va tabiiy resurslardan foydalanish mas‘uliyatini oshirish;

4) organik ishlab chiqarish usullariga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishni ta‘minlash;

5) organik ishlab chiqarishda gen muhandisligidan foydalanmaslik.

6. Uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya samaradorligi. Uy-joy kommunal xo‘jaligida samarasiz isitish tizimlari va asbob-uskunalar bilan jihozlangan uy-joylarning mavjudligi issiqlikni sezilarli darajada yo‘qotishga olib keladi. Elektr

energiyasi, suv, isitish va gaz quvurlari, kanalizatsiya tizimida energiyatejamkor va samarador texnologiyalardan foydalanish taklif etilmoqda.

7. Ekotizimlarni saqlash, boshqaruv samaradorligini oshirish va ekoturizmni rivojlantirish.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri bevosita ekotizimlar, ularni saqlash, samarali boshqarish hamda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan. Shu jihatdan ekologik turizmni muhim bir tarmog‘i, tabiat bilan hamohang turizm sifatida o‘rganishimiz mumkin.

Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ayniqsa, ichki turizm va ekoturizm bugun ko‘plab mamlakatlarda asosiy daromad manbalaridan biriga aylanib ulgurgan. O‘zbekiston ham turistik-rekreatsion salohiyati yuqori, ekoturistik imkoniyatlarga boy bo‘lgan davlatlardan biri. Shu sababdan bugun ekoturizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ekologik turizm (ekoturizm) turizmning yangi va yosh yo‘nalishi bo‘lishiga qaramasdan, o‘shish sur‘ati boshqa turistik tarmoqlardan 2-3 barobar jadal kechmoqda. Shu bilan birga, turizm sohasida ekoturizmning ulushi 15-20% ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich yilga kengayib bormoqda³⁴. Ekoturizmning maqsadi turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta‘minlashdir. Shu jihatdan, ekoturizm “yashil” iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi sifatida iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish³⁵”dan iborat. Bu esa o‘z nabvatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish bilan bog‘liq.

Bugunki kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti, rekreatsion resurslari ekologik turizmni har

³⁴ Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. Monografiya. –T.: Universitet, 2021. –B.8-9.

³⁵ O‘zR VMning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son qarori. 21.02.2022

bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozimki, yurtimizda 6 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, 5 ta davlat milliy tabiat bog'i, 11 ta davlat tabiat yodgorliklari, 12 ta davlat buyurtma qo'riqxonalari, 1 ta davlat tabiiy pitomnigi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 1 ta milliy bog', shuningdek, 71 ta o'rmon xo'jaligi va 5 ta ov xo'jaliklari mavjud³⁶.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot shakllanishi sharoitida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1) mamlakatimizdagi har bir hududning tabiiy sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ekoturistik master-rejalarni ishlab chiqish;

2) ekoturizmga "yashil" investitsiyalarni keng jalb qilish;

3) "Chorvoq" erkin turistik zonasi, "Zomin" turistik-rekreatsion zonalarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish;

4) mamlakatimizdagi yirik ekoturistik maskanlarga xorijiy va mahalliy sayyohlar e'tiborini jalb qilish;

5) hududlarning tabiiy sharoiti va resurslaridan oqilona foydalangan holda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish;

6) ekoturistik maskanlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistik xaritalar va belgilardan foydalanish;

7) ekoturistik maskanlarda atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e'tibor qaratish va bu borada ekologik nazoratni kuchaytirish.

8. "Yashil" texnologiyalarni yaratish va sotish. "Yashil" texnologiyalar (shuningdek, ekologik texnologiyalar, atrof-muhit texnologiyasi, "yashil" texnologiya, greentech) ishlab chiqarish jarayonlari va ta'minot zanjirlari ekologik toza yoki an'anaviy ishlab chiqarish usullariga nisbatan kamroq zararli bo'lgan texnologiyalardir. Ushbu texnologiyalar ekologik, iqtisodiy, texnologik va innovatsion sohalarida tatbiq etilib, chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish va hokazo masalalarni hal qiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanish misollari sifatida suvni biologik tozalash, gidroenergetika, quyosh energiyasi, yashil AKT, har qanday turdagi chiqindilarni qayta ishlash, shu jumladan, organik chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini keltirib o'tish mumkin.

Jahon iqtisodiyotining "yashil" sektorining ko'lami hali ham nisbatan kichik, shuning uchun ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda "yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan bir qatorda iqtisodiyotning "yashil kurtaklari" (green shoots) atamasi ko'pincha qo'llaniladi. Darhaqiqat, 2010-yilda ushbu sohada ishlab chiqarilgan mahsulot va

³⁶ <https://www.uznature.uz/uz/activity/biodiversity?numer=444>

xizmatlar qiymati 2 trillion AQSH dollari yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizini, foyda 530 milliard AQSH dollarini, bandlik 10 million kishini tashkil etdi.

O‘zbekiston ham mazkur sohadagi islohotlarni amaliyotga joriy etishda mintaqada yetakchi davlatlardan biri sanaladi. Bu borada hatto qonunchilik tizimida bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi davlatning soha istiqboliga befarq emasligidan darak beradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarorga asosan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan.

Unga ko‘ra, mazkur davrda umumiy elektr energiyasi ehtiyojida qayta tiklanuvchi energoresurslar ulushini 25%ga yetkazish, transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta’minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralari muvofiq “yashil” transportni rivojlantirish, “yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekistonda “yashil” texnologiyalarni joriy etish borasida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan qiymati 5,9 mlrd so‘mga teng 4 ta loyiha moliyalashtirildi. Bundan amaliy natijasi sifatida O‘zR FA Materialshunoslik instituti tomonidan quvvati 10 kVtga teng vodorod olishga mo‘ljallangan termokimyoviy reaktorning tajriba nusxasining dastlabki varianti “Modelica” hamda “Solid works flow simulation” dasturlarida ishlab chiqildi.

Energetika sohasida so‘nggi yillarda quyosh energiyasi ishlab chiqarish borasida bir qancha loyihalar ishlab chiqilib, ulardan dastlabkisi sifatida BAAning “Masdar” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Nur Navoi Solar” loyihasi bo‘lib, u bir yilda 80 mln tonna tabiiy gaz tejalishiga va 160 ming tonna issiqxona gazi chiqishini oldini olishga xizmat qiladi. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, mazkur sohadagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanilgan taqdirda, 600 mlrd kv soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va bu O‘zbekistonning bugungi elektr energiyasi iste’molidan 8 marotaba ko‘p.

O‘zbekistonda mavjud eng yirik ekologik muammo – bu Orol muammosi sanalanib, mazkur muammoni oldini olishga qaratilgan qiymati 2,4 trln so‘m ekvivalentda 71 ta tadbir, shuningdek, 1,9 trln so‘mlik 65 ta ustuvor innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Bu borada tuproq degradatsiyasini oldini olish, tuzlar ko‘chishini oldini oluvchi o‘simliklarni ekish kabi loyihalar amaliyotda qo‘llanilishi belgilangan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida Isroil va Turkiya bilan hamkorlikda suvni tejoychi “yashil texnologiyalar” joriy etilishi yil sayin ortib borayotganligi ham sohadagi yutuqlardan sanaladi.

Qurilish sohasida qayta tiklanuvchi kannabis o‘simligidan “kostrobeton” ishlab chiqarish rejalashtirilgan (VMning 2020-yil 7-dekabrdagi 770-son qarori asosida).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
3. O‘zR VMning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son qarori. 21.02.2022
4. Vaxabov A.V. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot. Darslik. –T.: Universitet, 2020. – 296 b.
5. Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. Monografiya. –T.: Universitet, 2021. –B.8-9.